

**ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILIMINI  
OSHIRISHDA TURLI XIL USULLARDAN FOYDALANISH**

**Boboqulova Shodiya Raxmonqulovna**

**Yuldasheva Feruza Shirinboyevna**

**Yuldasheva Nodira Yashinovna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar 17-umumi o'rta ta'lif maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fani darslarida o'quvchilarning bilimini oshirish haqida. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozimligi haqida so'z boardi.

**Kalit so`zlar:** ona tili, adabiyot, o'qitish, o'rgatish, o'quvchi, o'qituvchi, shakllantirish, ko'nikma, bilim berish.

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'lifning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyatga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi. Ma'lumki, kichik yoshdagи bolalar diqqati beqaror bo'lib, 1-sinf o'quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmiy topshirialarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi.

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviysiyoziy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga riosa qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini Shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalish usuliari haqidagi (so'z yasalishiga doir); so'zlarning leksiksemantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilaringish ishlatalishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'iadi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarini ham o'z ichiga oladi. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilarning tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatik nazariya grammatik to'g'ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga amalda tatbiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o'stirish darsning mazmunida va qo'llanilgan vazifalar turlarida o'z aksini topadi.

Grammatik, so'z yasalishiga oid, imloviy materiallarni o'rganishni nutq o'stirish bilan bog'lash o'quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o'stirish jarayoni ularning tafakkurini o'stirish bilan bog'liq.

Ona tili darsi o'quvchilar taffakkurini o'stirish ustida ishlash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o'rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o'zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o'tkazish tushuniladi. Masalan, „O'zakdosh so'zlan» tushunchasini shakllantirish uchun so'zlarning leksik ma'nosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning

ma'nolarida umumiylikni va ularda bir xil o'zakning mavjudligini bilish lozim. o'quvchilar tafak-kurini o'stirish uchun o'qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa tur-larini tanlaydi, darsning materialini va uni o'zlashtirishda o'quvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikraalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasawur etish), umumlashtirish, guaihlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga tmkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, birbiridan ajratilmagan holda o'quvtarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar mакtab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan.

Adabiyot murakkab va ko'p qirrali o'quv fanidir. U o'quvchilarni hayot bilan tanishtiradi, ularda atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini, Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini rivojlanadiradi. Ta'kid-langan sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish vazifasi adabiyot o'qituvchisi zimmasida bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchi o'z fanini, maktab va o'quvchilarni yaxshi bilishi, o'quvchiga DTS talablari asosida berilishi zarur bilim va ko'nikma haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi, o'z fani mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchi shaxsiyatidagi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan muayyan bir usul va tartibda ish olib borishi zarur.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo`lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo`lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo`ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamadir. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsiunal jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- 1) Azizzxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxsislari tayyorlash texnologiyasi. – T.: «Nizomiy TGPU». 2000. - 52 b.
- 2) Haydarova O.Q.Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.
- 3) Ibrohimov A. Bizkim, O'zbeklar... T., "Sharq", 1999.
- 4) Nishonaliyev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. // Xalq ta'limi. 1999. № 6. 28-31 b.
- 5) Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000. - 80 b.
- 6) Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash texnologiyalari. Toshkent: 2000 y. - 46 b.